

M.ZAMAXSHARIYNING LINGVISTIK QARASHLARI

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

*Mirzayeva Zebunisi,
Nazarova Shodiya,
Chorshanbiyeva Nafosat*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariy ijodidagi lingvistik qarashlar qalamga olinadi, undagi so'zlarning asosiy qo'llanilish o'rinlari asarlaridagi lingvistik tahlillar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Al-Kashshof asari, lingvistik tahlil, qarash, mulohaza, al-mufradot

Kirish

Arab tilshunosligining rivojida arablardan tashqari boshqa xalqlar olimlarining hissasi katta ekanligi yuqorida bayon qilindi. Ana shunday olimlardan yana biri xorazmlik Mahmud Zamaxshariydir. Xorazm jahon fani va madaniyatiga bir qancha allomalarni yetkazib berdi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy kabi olimlarning nomi dunyoga mashhurdir. Ana shular orasida filologiya sohasida katta mavqega ega bo'lgan Mahmud Zamaxshariyning alohida o'rni bor. [1] U hijriy 467-yil rajab oyining yigirma ettinchi kuni (milodiy 1045-yilning 19 martida) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. Shunga ko'ra Zamaxshariy tahallusini olgan. Az-Zamaxshariyning otasi o'z davrining ilmi kishilaridan bo'lib, Qur'oni Karimni yoddan bilgan. Masjidda imomlik qilgan. Onasi ham savodli, oqila, fozila ayollardan bo'lgan. Az-Zamaxshariy dastlab otasi ko'magida savod chiqardi. So'ng Xorazmdagi madrasada tahsil ko'rdi. O'z bilimni yanada chuqurlashtirish niyatida Buxoroga keldi. Chunki Buxoro Somoniylar davridan boshlab ilm-fan markaziga aylangan, bu erda ilm-fanning dunyoga dong taratgan vakillari yig'ilgan edi. U Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshoxlar xizmatida bo'ldi. Shu vaqtda Xorazmshohlar davlati saljuqlar saltanatiga bo'ysunar edi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh va uning vaziri Nizom ul-Mulk ilm-fan va madaniyatga katta e'tibor bilan qaradilar. Ayniqsa, Nizom ul-Mulk fan-madaniyat homiysi sifatida dunyoga tanildi. Bir qancha shaharlarda sunniy mashabi bo'yicha shariatni o'rganadigan madrasalar qurdirdi. Bu madrasalar Nizomiya nomi bilan yuritildi. Xorazmda yetarli obro'-e'tibor topmagan Zamaxshariy Nizom ul-Mulk huzuriga yo'l oldi. Lekin Zamaxshariy mo'taziliy mazhabiga mansub bo'lganligidan, bu yerda ham o'z qadrini topmadi. Shundan so'ng Muhammad ibn Anushtagin asos solgan xorazmshoxdar saltanati vujudga kelgunga qadar (hijriy 490-521 yillar) Bag'dod,

Hamadon, Makka singari dunyoning turli shaharlarida yurib, ularning olimu fuzalolari bilan tanishdi, suhbatlar qurdi.

Asosiy qism

Mahmud Zamaxshariyning lingvistik qarashlari. Arab tilshunosligining rivojida arablardan tashqari boshqa xalqlar olimlarining hissasi katta ekanligi yuqorida bayon qilindi. Ana shunday olimlardan yana biri xorazmlik Mahmud Zamaxshariydir. Xorazm jahon fani va madaniyatiga bir qancha allomalarni yetkazib berdi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy kabi olimlarning nomi dunyoga mashhurdir. Ana shular orasida filologiya sohasida katta mavqega ega bo'lgan Mahmud Zamaxshariyning alohida o'rni bor. U hijriy 467-yil rajab oyining yigirma ettinchi kuni (milodiy 1045-yilning 19 martida) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. Shunga ko'ra Zamaxshariy tahllusini olgan. Az-Zamaxshariyning otasi o'z davrining ilmi kishilaridan bo'lib, Qur'oni Karimni yoddan bilgan. Masjidda imomlik qilgan. Onasi ham savodli, oqila, fozila ayollardan bo'lgan. Az-Zamaxshariy dastlab otasi ko'magida savod chiqardi. So'ng Xorazmdagi madrasada tahsil ko'rdi. O'z bilimni yanada chuqurlashtirish niyatida Buxoroga keldi. Chunki Buxoro Somoniylar davridan boshlab ilm-fan markaziga aylangan, bu erda ilm-fanning dunyoga dong taratgan vakillari yig'ilgan edi. U Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshoxlar xizmatida bo'ldi. Shu vaqtda Xorazmshohlar davlati saljuqlar saltanatiga bo'ysunar edi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh va uning vaziri Nizom ul-Mulk ilm-fan va madaniyatga katta e'tibor bilan qaradilar. Ayniqsa, Nizom ul-Mulk fan-madaniyat homiysi sifatida dunyoga tanildi. Bir qancha shaharlarda sunniy mashabi bo'yicha shariatni o'rganadigan madrasalar qurdirdi. Bu madrasalar Nizomiya nomi bilan yuritildi. Xorazmda yetarli obro'-e'tibor topmagan Zamaxshariy Nizom ul-Mulk huzuriga yo'l oldi. Lekin Zamaxshariy mo'taziliy mazhabiga mansub bo'lganligidan, bu yerda ham o'z qadrini topmadi. Shundan so'ng Muhammad ibn Anushtagin asos solgan xorazmshoxdar saltanati vujudga kelgunga qadar (hijriy 490-521 yillar) Bag'dod, Hamadon, Makka singari dunyoning turli shaharlarida yurib, ularning olimu fuzalolari bilan tanishdi, suhbatlar qurdi. [2] Muhammad ibn Anushtagin taxt tepasiga kelgach, Zamaxshariy o'z vataniga qaytdi va Anushtagin marhamatidan bahramand bo'ldi. Anushtagin vafotidan so'ng (hijriy 521 yil) uning o'g'li Otsiz (hijriy 521-551-yillar hukmronlik qilgan) ham Zamaxshariyga katta hurmat-e'tibor bilan qaragan. Shunga qaramay u yana Makkaga talpinadi. Makkada Amir Ibn Vaqqos uni yana izzat-ikrom bilan kutib oladi. Ibn Vaqqosning yordamidan ilhomlangan az-Zamaxshariy o'zining Qur'oni Karimning tafsiriga bag'ishlangan «Al-Kashshof» asarini yozib tugatadi. Uch yil Makkada yashagandan so'ng az-Zamaxshariy vatanini qumsaydi. Xorazmga qaytib, bir necha yil yashaydi va 538-yilning arafa kechasi (milodiy 1143-yil) Jurjoniya (hozirgi Urganch)da vafot etadi. Zamaxshariy davrining buyuk olimi darajasiga

ko'tarildi. U tilshunoslik, adabiyot, jug'rofiyo, tafsir, hadis, fiqh va ilmi alqiroatga oid ellikdan ortiq asarlar yaratdi. Ularning ko'pi bizgacha yetib kelgan.[3] Mashhur tarixchi Ibn-al-Kiftiyning e'tirof etishicha, u o'z asrida arab tilida ijod qilgan ajamlilar (arab bo'lmaganlar) orasida eng buyugi bo'lgan. Ibn Xallikon Zamaxshariyning tafsir, hadis, nahv, lug'at, ilm ul-bayon bo'yicha buyuk imom, bu ilmlar bo'yicha o'z davrida yagona ekanligini ta'kidlaydi. Mahmud Zamaxshariy buyuk olim sifatida o'zidan keyingi avlodlarga boy ilmiy meros qoldirdi. Ular ichida tilshunoslikka oid asarlari alohida qimmatga ega. Zamaxshariy garchi arab bo'lmasa ham, lekin arab tili grammatikasiga doir bir qancha qimmatli asarlar yaratdi. Arablar: «Agar shu kusa, cho'loq bo'lmaganda, arablar o'z tillarini bilmas edilar», - deb uning arab tilshunosligidagi buyuk o'rnini haqqoniy e'tirof etadilar.[4] Mahmud Zamaxshariy arab tili grammatikasiga doir «Al-mufassal» nomi bilan mashhur bo'lgan «Al-mufassal fi san'at il-iprob» («Fleksiya san'ati haqida mufassal kitob»), «Al-muhajat bil-masoil an-naxviya av al-axajiy an-nahviya» («Grammatik masalalarga oid jumboqlar»), «Al-unmuzaj fi-n-nahvi» («Grammatik namunalar haqida»), «Samiym ul-arabiya» («Arab tilining negizi»), «Al-mufrad va-l-muallif fi-n-naqvi» («Grammatikada birlik va ko'plik»), «Al-mufrad va-l murakkab fi-l-arabiya» («Arab tilida birlik va ko'plik»), «Al-amaliy fin-nahvi» («Grammatik qoidalarda orfografiya»), «Diyvon ut-tamoyil» («Assimilyasiya haqida devon») kabi qator asarlar yaratdi. Yuqorida sanalgan asarlarning o'ziyoq uning lingvistika sohasida naqadar sermahsul qalam tebratganidan dalolat beradi. Grammatikaga doir asarlari ichida «Al-Mufassal» arab tili morfologiyasi va sintaksisini o'rganishda eng muhim qo'llanma sifatida Sharqda ham, G'arbda ham katta shuxratga ega bo'lgan. U. Uvatovning ta'kidlashiga ko'ra, hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sovg'a qilishga va'da bergan. Bir qancha kishilar az-Zamaxshariyning bu asarini yod olib, mukofotga sazovor bo'lganlar.[4] Zamaxshariyning bu kitobi shu darajada shuhrat qozonganki, ko'pchilik uni Sibavayhiyning «Kitob Sibavayh»iga qiyoslaydilar va shu kitob bilan bellasha oladigan buyuk asar ekanligini bayon qiladilar.[5] Bulardan tashqari, Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» («Adabiyotga kirish») asari tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu asar Xorazmshoh Apouddavla Abdulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan. Asar besh qismdan iborat: 1) ot, 2) fe'l, 3) bog'lovchilar, 4) ot o'zgarishlari, 5) fe'l o'zgarishlari. Mazkur lug'at kitob o'sha davrda arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralarini qamrab oladi. Bu so'zlarning ma'nolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlanadi. «Muqaddimat ul-adab» fors tilidan tashqari, chig'atoy (o'zbek), mo'g'ul, turk tillariga ham tarjima qilingan. Asarning chig'atoy tiliga tarjimasini muallifning o'zi tomonidan bajarilgan bo'lishi kerak. Chunki asar Xorazmshoh Otsizga bag'ishlanganidan, kitobni u oson tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chig'atoy tilidagi tarjimasini berganligi

tabiiydir. Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asarining bir necha qo‘lyozmalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Bu asarning bizgacha yetib kelishi tilshunoslikning katta baxti sanaladi. Chunki u o‘zbek tili tarixini o‘rganishda qimmatli va ishonchli material bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bu haqida Sadridin Ayniy: «Muqaddimat ul-adab» asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasini bilan barobardir», - deb yozgan edi. «Muqaddimat ul-adab» asari asrimizga kelib ko‘pchilik tilshunos olimlarning diqqatini tortdi. Ayniqsa, N.N. Poppe va A.K. Borovkovlar uning mo‘g‘ul va o‘zbek tiliga doir qismini tadqiq qilishda va butun asarning matnini nashr etishda katta xizmat qildilar. 1926-yilda Buxorodan topilgan, hijriy 989-yili (milodiy 1492) hattot Darvesh Muhammad tomonidan ko‘chirilgan nusxada «Muqaddimat ul-adab»ning arabcha matnini ng birdaniga uch tilda – fors, chig‘atoy (o‘zbek) va mo‘g‘ul tillarida so‘zma-so‘z tarjimasi beriladi. Faqat qisqacha so‘z boshininggina mo‘g‘ulcha tarjimasi beriladi. Yuqorida Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asarining besh bo‘limdan iborat ekanligi bayon qilingan edi. Buxoro nusxasida esa so‘nggi uch bo‘lim tushib qolgan. Ismlar tematik tamoyil asosida guruhlarga bo‘linadi: vaqt nomlari, osmon jismlari nomlari, tabiat hodisalari nomlari, metall va minerallar nomlari, aloqa yo‘llari nomlari, suv bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, o‘simlik nomlari va boshqalar. Fe‘llar esa arab grammatik an‘anasiga muvofiq, o‘zak tarkibiga ko‘ra sinflarga ajratilgan. «Muqaddimat ul-adab» asarining chig‘atoy va mo‘g‘ul tillaridagi tarjima matni 1938-yilda N.N. Poppe tomonidan alohida kitob holida nashr etilgani turkiyshunoslik va mo‘g‘ulshunoslikda katta voqea bo‘ldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Zamaxshariy - turk xalqini ilmiy, diniy, adabiy shaxsiyati va turk ekanligi bilan faxrlanadigan shaxs. Allomaning "Muqaddimat ul-adab" asarini turk tilining turli lahjalarida so'zlar va qisqa jumlar hamda tushuntirish uchun xizmat qilingan asar sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Bu asarni pedagogik qiymati shundan iboratki u turklarga arab tilini o'rgatish uchun yozilgan. Bu asar arab tili va adabiyotining nozik tomonlarini o'z ichiga oladi va didaktik jihatdan muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу-л-^осим Махмуд аз-Замахшарий "Нозик иборалар" У. Уватов таржимаси - Т., "Камалак", 1992.
2. Ali Ozek, a.g.e. s.77
3. Huseyin Akyuz, a.g.e., s.132.
4. Махмуд Замахшарий/ У.Уватов.-Т.: "O'zbekiston", 2011.-48 б
5. Nuri Yuce, Mukaddimetu'l-Edeb, n§r. Nuri Yuce, AKD TYK. TDK Yay. 535, Ank. 1988. s.5.